

PEDAGOG FAOLIYATIDA PEDAGOGIK MENEJMENTNING O'RNI

Farg'ona viloyati Beshariq tumani

9 – davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori

Gulmatova Muhayyo Sodikovna

Annotatsiya. Mazkur maqolada pedagog faoliyatida pedagogik menejmentning mohiyati, funksiyalari va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Pedagogik menejment pedagogning kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, ta'lim jarayonini rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishning muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogik menejmentning innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unligi hamda pedagog kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik menejment, pedagog faoliyati, ta'lim sifati, boshqaruv, kasbiy kompetensiya.

Аннотация. В статье раскрывается сущность, функции и значение педагогического менеджмента в профессиональной деятельности педагога. Педагогический менеджмент рассматривается как важный фактор эффективной организации образовательного процесса, планирования, координации и контроля педагогической деятельности. Особое внимание уделено роли педагогического менеджмента в повышении качества образования и развитии профессиональных компетенций педагога в условиях современной образовательной среды.

Ключевые слова: педагогический менеджмент, деятельность педагога, качество образования, управление, профессиональная компетентность.

Annotation. This article explores the essence, functions, and importance of pedagogical management in teachers' professional activities. Pedagogical management is considered a key factor in organizing the educational process effectively, planning, coordinating, and monitoring pedagogical activities. The article also emphasizes the role

of pedagogical management in improving the quality of education and developing teachers' professional competencies in a modern educational environment.

Key words: pedagogical management, teacher activity, education quality, management, professional competence.

Kirish. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab

ta'lim tizimida katta islohotlar ya'ni DTS, ta'lim tizimining barcha sohalarida, maktablarni zamonaviy talablar asosida qayta shakllantirish, darsliklarni yangi avlodlarini yaratish bo'yicha bir qator islohotlar olib borilmoqda. O'z vaqtida sharq mutafakkirlari rahbarlikning o'ziga xos xususiyatlari haqida fikr yuritganlar. IX- X asrda yashab o'tgan buyuk faylasuf A.N. Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" asosida rahbarlikning o'ziga xos jihatlari haqida to'xtalib o'tgan[1.204]. "Jamiyatda adolat o'rnatish, shahar davlatni boshqarish yo'llari, shahar xokimi qanday bo'lishi lozimligi, rahbar uchun zarur bo'lgan hislatlar" haqida qimmatli fikr mulohazalar bildirgan.

Ta'lim muassasalarini boshqarish tushunchasi bugungi kunda "Menejment" "Menejer" tushunchalari bilan boyitildi. "Menejment" atamasining ko'plab ta'riflari mavjud. Menejment - inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida boshqaruvni tashkil etish (boshqarish, boshqaruv hokimiyati, tashkil etish), rahbarlik qilish (rejalashtirish, tartibga solish-muvofiqlashtirish, nazorat qilish) ma'nolarini anglatadi. Menejment - bu ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun faoliyatni, ya'ni insonlar yoki ularning guruhlarini faoliyatini muvofiqlashtirish hamda boshqarish usullari, shakllari va vositalari majmui. Sodda qilib aytganda, menejment umumiy xolda u yoki bu faoliyat turini tashkil etishni va unga rahbarlik qilishni, ya'ni turli xil sohalarda faoliyat ko'rsatayotgan insonlarning xatti-harakatlarini, munosabatlarini muvofiqlashtirish, ularning imkoniyatlari va qobiliyatlaridan to'g'ri foydalanishni tashkil etish, nazorat qilish va boshqarishni bildiradi[2.6].

Pedagogik menejmentning maqsadi esa aniq vazifalarni ko'rib chiqish, menejment inson faoliyatning barcha ishlab chiqarishi va ijtimoiy turlariga tegishli degan xulosaga kelishga imkon berishini ifodalaydi Menejmenti mavjud o'rta imkoniyatlardan natijalarga erishish maqsadida muayyan xodim yoki guruhga ta'sir etish, ular bilan hamkorlik qilishi

jarayonidir. Ta'lim menejmenti – bu fan va san'at chunki bunda insonlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar katta rol o'ynaydi. Bugungi globallashuv va ta'lim tizimining jadal rivojlanishi sharoitida pedagog faoliyatiga qo'yiladigan talablar tobora ortib bormoqda. Ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion yondashuvlarni amaliyotga joriy etishda pedagogik menejment muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, pedagogning kundalik faoliyatida boshqaruv elementlarining mavjudligi ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Pedagogik menejment nafaqat rahbarlar, balki har bir pedagog uchun zarur bo'lgan kasbiy faoliyat mexanizmi hisoblanadi. Chunki pedagog o'z faoliyatini rejalashtirishi, tashkil etishi, baholashi va tahlil qilishi orqali ta'lim jarayonini samarali boshqaradi[3.48].

Pedagogik menejment — bu ta'lim muassasasida ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarishga qaratilgan ilmiy-amaliy faoliyat bo'lib, u pedagogik jarayonning barcha bosqichlarini qamrab oladi². Uning asosiy mohiyati ta'lim jarayonida inson omilini samarali boshqarish, pedagog va ta'lim oluvchilar faoliyatini uyg'unlashtirishdan iborat.

Pedagogik menejment quyidagi asosiy funksiyalarni o'z ichiga oladi: rejalashtirish, tashkil etish, muvofiqlashtirish, nazorat va baholash, tahlil va rivojlantirish.

Mazkur funksiyalar pedagog faoliyatida izchil va tizimli ravishda amalga oshirilganda ta'lim jarayonining samaradorligi oshadi.

Pedagog faoliyatida pedagogik menejment quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. Dars va mashg'ulotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda rejalashtirish;
2. Ta'lim mazmunini davlat ta'lim standartlari asosida tashkil etish;
3. Pedagogik jarayonda innovatsion texnologiyalarni qo'llash;
4. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va kompetensiyalarini baholash;
5. Pedagogning kasbiy rivojlanishini ta'minlash[4.76].

Shuningdek, pedagogik menejment pedagogning mas'uliyatini oshiradi, uning ijodiy yondashuvini rag'batlantiradi va ta'lim jarayonida samarali muhit yaratadi.

Ta'lim sifati pedagogik menejmentning to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Samarali menejment orqali pedagog o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga

olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etadi. Bu esa ta'lim natijalarining barqarorligini ta'minlaydi.

Pedagogik menejment pedagogning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi, ya'ni: metodik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, axborot-kommunikatsion kompetensiya, refleksiv kompetensiya.

Natijada pedagogning kasbiy mahorati oshadi va ta'lim sifati yuksaladi[5.120].

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar pedagogik menejmentning ajralmas qismiga aylanmoqda. Elektron rejalashtirish, raqamli baholash tizimlari, masofaviy ta'lim vositalari pedagog faoliyatida boshqaruv samaradorligini oshirmoqda[6.18].

Zamonaviy pedagog pedagogik menejment asoslarini egallagan holda ta'lim jarayonini mustaqil va samarali boshqara olishi zarur. Bu esa uzluksiz kasbiy rivojlanishni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, pedagogik menejment pedagog faoliyatining muhim tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim jarayonining samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Pedagogik menejmentni amaliyotga to'g'ri joriy etish pedagogning kasbiy mahoratini oshirishga, ta'lim sifatini yaxshilashga va ta'lim muassasasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farobiy "Fozil odamlar shahri" A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 1993. B. 204.
2. Kenjaboyev A.E., Karimova B.X. Pedagogik menejment asoslari. O'quv qo'llanma Termiz, 2003. B. 6.
3. Slastyonin V.A. Pedagogika. — Moskva: Akademiya, 2019. B. 48.
4. Kuzmina N.V. Professionalizm lichnosti pedagoga. —Sankt-Peterburg, 2018. B.76.
5. Ishmuhamedov R.J. Pedagogik menejment. — Toshkent: Fan, 2020.B. 120.
6. Abduqodirov A.A. Ta'limda boshqaruv nazariyasi. —Toshkent, 2021. B.18